

**BO'LG'USI O'QITUVCHILARNI MODULLI KONTENTLARGA ASOSLANGAN ELEKTRON
PLATFORMA VOSITASIDA MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL ETISH MODEL**

Nazarov Ilhomjon Usmanalievich

Toshkent davlat pedagogika universiteti

Matematika va TAT kafedrası dotsenti v.b., p.f.f.d,

Nilxomjon67@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada elektron ta'lim platformasidan foydalangan holda bo'lg'usi o'qituvchilarning mustaqil ta'limini tashkil etish imkoniyatlari aniqlashtirilgan. Bunda mustaqil ta'limini tashkil etish tamoyillari, yondashuvlari va mustaqil ta'lim jarayonlarining asosiy tarkibiy qismlari: maqsadli, mazmunli, protsessual, natijaviy-baholovchi yoritilgan. Elektron ta'lim muhitiga moslashtirilgan kasbiy vazifalarni hal etishga yo'naltirilgan darajali topshiriqlar, ya'ni o'quv loyihalaridan foydalanish metodikasi tavsiflangan. Taklif etilayotgan model bo'lg'usi o'qituvchilarning mustaqil ta'limini tashkil etish samaradorligini oshirishga va ularning umummadaniy va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda yordam beradi.

Kalit so'zlar: elektron ta'lim platformasi, mustaqil ta'lim, o'quv loyiha metodi, fanlararo o'quv loyihalar.

Аннотация

В статье уточняются возможности организационного самостоятельного обучения будущих учителей с использованием платформы электронного обучения. В нем раскрыты принципы, подходы и основные составляющие процессов самостоятельного образования: целенаправленный, содержательный, процессуальный, результативно-оценочный. Описан метод использования образовательных проектов. Предложенная модель поможет повысить эффективность организационного самостоятельного образования будущих учителей и развития их общекультурных и профессиональных компетенций.

Ключевые слова: образовательная платформа, самостоятельное обучение, метод образовательного проекта, междисциплинарный образовательный проект.

Abstract

The article clarifies the possibilities of organizing independent training for future teachers using the e-learning platform. It reveals the principles, approaches and main components of the processes of independent education: goal-oriented, content-based, procedural, effective-evaluative. The method of using educational projects is described. The proposed model will help improve the efficiency of organizing independent education of future teachers and developing their general cultural and professional competencies.

Keywords: educational platform, independent learning, educational project method, interdisciplinary educational project.

Oliy ta'lim tizimida elektron ta'lim imkoniyatlaridan foydalanishning eng muhim vazifalardan biri – bu bo'lg'usi o'qituvchilarning mustaqil ta'limini tashkil etish hisoblanadi. N.Muslimov, Sh.Yunusova, N.Xalilov, J.Tolipova, T.Niyazmetova, Z.Nishonova, M.Paynter, N.Bruce, J.Salinas, N.V.Akamova, I.M. Vlasova, Ye.S.Polatlar mustaqil ta'limni samarali tashkil etishda zamonaviy axborot texnologiyalarning o'rni beqiyosligini ta'kidlashgan.

N.A.Muslimovning fikriga ko'ra¹: mustaqil ta'lim – oliy ta'lim muassasalari talabalarida pedagog rahbarligi va nazorati ostida o'quv hamda mutaxassislik fanlari bo'yicha ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlarida egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni (BKM) mustahkamlash, boyitish hamda yangi BKMni mustaqil o'zlashtirishini ta'minlash, ularning o'z kasbiy faoliyatini mustaqil tashkil eta olishga tayyorlashga yo'naltirilgan ta'limdir.


Tadqiqotimiz doirasida elektron ta'lim muhitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida bo'lg'usi o'qituvchilarning "Ta'limda axborot texnologiyalari (TAT)" fani yuzasidan mustaqil ta'limini tashkil etish modeli ishlab chiqildi (1-rasm). Ushbu modelni ishlab chiqishda oliy ta'limning o'quv jarayonlarida kompetensiyaviy, faoliyatli, texnologik, tizimli, kommunikativ hamda axborotli yondashuvlarga tayandik. Ushbu yondashuvlar negizida amalga oshirilayotgan ishlarning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi bir qator tamoyillar imkoniyatlari aniqlashtirildi, ular jumlasiga:

- **integrativlik tamoyili** – bo'lg'usi o'qituvchi uchun amaliyotga yo'naltirilgan vazifalarni bajarish orqali fandagi kasbiy ahamiyatga oid axborotlarni birlashtirishga imkon beradi;

- **modullilik tamoyili** – elektron ta'lim platformasida "TAT" fanining modulli kontentlarini ishlab chiqish va bo'lg'usi o'qituvchining modullararo algoritmik harakatini tashkil etishlar nazarda tutadi;

- **kumulyativlik tamoyili** – o'quv fanining asosiy maqsadi hamda uni kasbiy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan turli vazifalarni ishlab chiqishlar nazarda tutadidi.

¹ N.A.Muslimov., M.Usmonboeva., D.Sayfurov., A.To'raev. *Innovatsion ta'lim texnologiyalari.* //Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. - T.: - 2015. -208 bet.



1-rasm. Elektron platformada bo'lg'usi o'qituvchilar mustaqil ta'limini tashkil etish modeli.

Bo'lg'usi o'qituvchilarning mustaqil ta'lim tizimi odatda – har bir mustaqil ishning maqsadi, mazmuni, uni bajarish jarayoni va baho-natija komponentlarini o'z ichiga oladi (2-rasm).



Maqsad komponenti – elektron platformada mustaqil ta'limni tashkil etish orqali bo'lg'usi o'qituvchilarning o'quv-bilish faoliyati samaradorligini oshirishni ko'zlaydi.

Mazmuniy komponent – elektron platformada o'quv fanining elektron ta'lim resurslari (modulli kontentlar) mazmuni hamda ta'limiy ehtiyojlarni amalga oshirishda elektron ta'lim muhiti imkoniyatlarini o'z ichiga oladi.

Elektron ta'lim platformasining asosiy tushunchalaridan biri – bu fan kursidir.

Fan kursini ishlab chiqishga oid tadqiqotlar, uslubiy ishlanmalar, tavsiyalar tahlili, shuningdek, o'quv fani elektron kursini yaratish tajribasiga tayangan holda quyidagi asosiy komponentlar aniqlandi:

1. Tashkiliy-uslubiy komponent:

1.1 fan kursining qisqacha tavsifi va kurs muallifi haqidagi ma'lumot;

1.2 o'quv dasturi;

1.3 umumiy va kasbiy kompetensiyalarni tavsiflovchi kasbiy-ta'limiy dasturlarni o'zlashtirish natijalariga qo'yiladigan talablar.

2. Axborot-ta'lim komponenti:

2.1 auditoriyadan tashqarida tashkil etiladigan mustaqil ta'limning maqsadi, vazifasi va tuzilishi;

2.2 doimiy boyitib boriladigan havolali, matnli resurslar hamda o'quv qo'llanmalar banki.

3. **Kommunikativ komponent** – bo'lg'usi o'qituvchilarning ushbu ta'lim muhiti va uning sub'ektlari bilan shaxslararo (o'zaro) ta'sir maydoni. Foydalanuvchilarning o'zaro muloqotiga imkon beruvchi asosiy vositalarga: forum, chat, E-mail, biriktirilgan fayllar almashivi (fan kursi doirasida), shaxsiy xabarlar almashinuvi v.b. kiradi.

4. **Tashxislovchi komponent** - bo'lg'usi o'qituvchilarning mustaqil ta'limini tashkil etishga qaratiladi, ular jumlasiga:

o'qitish jarayoni va bo'lg'usi o'qituvchilar bilimini nazorat qilish;

o'zini-o'zi nazorat qilish va nazorat shakllari (oralik, yakuniy) uchun didaktik kontentlarning mavjudligi².

² Гриценко В.И., Кудрявцева С.П., Колос В.В., Веренич Е.В. Дистанционное обучение: теория и практика. – К.: Наук. думка, 2004. – 375с.

Fan kursi mazmuni va uni o'qitish konsepsiyasiga ko'ra, administrator ushbu fan kursi platformasi komponentlarini to'ldiruvchi hamda Google Classroom aralash ta'lim platformasida taqdim etilgan interaktiv elementlar va statistik resurslarni qo'shishni ta'minlovchi hisoblanadi³.

Jarayon-faoliyat komponenti – bo'lg'usi o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan o'qitishning o'quv loyiha usulini amalga oshirish orqali pedagog-o'qituvchi va bo'lg'usi o'qituvchilarning birgalikdagi faoliyatini anglatadi.

O'qitishning o'quv-loyiha usulining mohiyati bo'lg'usi o'qituvchilarning mustaqil ta'limini tashkil etishdan iborat bo'lib, unda asta sekin murakkablashtirib boriluvchi amaliy ahamiyatga ega bo'lgan vazifalar hamda Google Classroom aralash ta'lim platformasiga asoslangan axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash orqali amalga oshiriladigan loyihalarni rejalashtirish va bajarish jarayonida bo'lg'usi o'qituvchilarning fanga oid kompetensiyalari rivojlantiriladi. Loyiha vazifalari fanlararo aloqadorlikda tuzilgan bo'lib, unga kiritilgan kasbiy muhim masalalarni yechishda integratsiyalashgan bilimlardan foydalanish talab qilinadi. Ushbu usul bo'lg'usi o'qituvchilarning kasbiy va ta'limiy motivatsiyasini rivojlantirishga, egallangan bilimlarni kasbiy vazifalarni bajarishga qaratiluvchi kompetensiyalarini rivojlantirishga, shuningdek, axborot makonida ta'limiy ehtiyojlardan kelib chiqqan holda harakat qilishga imkon beradi.

Bo'lg'usi o'qituvchilar uchun elektron platformada modulli o'qitishga yo'naltirilgan "TAT" fani yuzasidan keltirilgan mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarish, o'zida ilmiy ma'lumotlarni idrok etish, ularni tuzish, o'zgartirish, bilish hamda taqdim etish orqali amalga oshirishni ko'zda tutadi.

Tadqiqot doirasida 60111500-Rus tili va adabiyoti, 1 - 03 04 03 "O'zbek-Belorus" qo'shma innovatsion pedagogika fakultetining amaliy psixologiya yo'nalishida pedagogik tajriba-sinov ishlari olib borildi. Talabalar mustaqil ta'limi ko'p darajali loyihalash vazifalari ketma-ketligi asosida qurildi.

Axborotli loyihalash vazifalari – axborotni to'plash, tahlil qilish, umumlashtirish, shuningdek, platforma a'zolarini ushbu kontentlar bilan tanishtirishni ko'zda tutadi.

Elektron platformada "TAT" fanining mustaqil ta'lim topshiriqlari darajali loyihalash negizida quriladi (1 jadval).

1-jadval Mustaqil ta'lim o'quv loyiha topshiriqlarining darajalari

Birinchi darajali topshiriqlar	Ikkinchi darajali topshiriqlar	Uchinchi darajali topshiriqlar
"TAT" fani doirasida amalga oshiriladigan mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarish	Murakkablik darajasi qisman ortib boruvchi va amaliy dasturiy vositalarni birgalikda qo'llash xususiyatiga ega bo'lgan vazifalar	Murakkablik darajasi ortib boruvchi va fanlararo xususiyatga ega bo'lgan vazifalar

Роберт И.В., Пашокова С.В., и др. Информационные и коммуникативные технологии в образовании/учеб.-метод. пос. для пед. вузов. – М., 2006. – 259с.

Андреев А.В., Андреева С.В., Бокарёва Т.А., Доценко И.Б. Новые педагогические технологии: система дистанционного обучения Moodle //Центр довузовской подготовки/ТГПУ - URL: <http://WWW.cdp.tsure.ru>

³ Маняхина В., Золочевский А. Описание настройки и использования Moodle - URL: <http://docs.altlinux.org>current/modules/moodle/>

Vazifa: “TAT” fani o’quv kontentlarini qamrab oluvchi bilimlarni shakllantirish. Masalan: “Axborot ta’lim muhitida o’quv jarayonlarni tashkil etish texnologiyalari” mavzusi yuzasidan topshiriq. Maqsad: ushbu mavzu yuzasidan bilim, ko’nikma va malakalarni rivojlantirishga qaratilgan individual fazifalarni bajarishni o’rganish.	Vazifa: “TAT” fanining o’quv kontentlarini qamrab oluvchi va amaliy dasturlardan birgalikda foydalanishga qaratilgan (OLE texnologiyasi) orqali bilimlarni rivojlantirish. Masalan: “Amaliy dasturiy vositalar o’rtasida ma’lumotlar almashish uchun OLE texnologiyasidan foydalanish” mavzusi yuzasidan topshiriq. Maqsad: turli amaliy dasturiy vositalarni integrativ qo’llash bo’yicha bilim, ko’nikma va malakalarga ega bo’lish.	Vazifa: Fanlararo aloqadorlikni amalga oshirish orqali konstruktiv-texnik, o’lchov-hisoblash, tajrib-sinov yuzasidan bilimlarni rivojlantirish. Masalan, “Fizika, matematika, statistika v.b. fanlarga tegishli masalalarni yechish texnologiyasi” mavzusidagi topshiriqlar. Bunda, fanlararo aloqalarni tashkil etishning turli ko’rinishlari taklif etiladi. Maqsad: bir xil ob’ektni turli fanlar kesimida har tomonlama o’rganish, boshqa fanlarra tegishli bo’lgan turli ob’ektlarni o’rganish uchun bir fan kesimidagi usullardan foydalanish, turli ob’ektlarni o’rganish uchun turli fanlardagi bir xil nazariy va fan qonuniyatlarini jalb qilish kompetensiyalarini rivojlantirish.
Izoh: bu yerda mustaqil ta’lim – bo’lg’usi o’qituvchilar faoliyatining ajralmas qismi sifatida qaraladi.	Izoh: hozirda ushbu texnologiyaning: OLE 1.*; OLE 2.0 va ActiveX versiyalaridan foydalanish imkoniyati mavjud bo’lib, ularni ikki ko’rinishda, ya’ni ✓ turli ob’ektlar bilan aloqadorlikni o’rnatish; ✓ ob’ektni o’ziga joylashtirish maqsadlarida ishlatiladi.	Izoh: fanlararo aloqadorlik zamonaviy ilmiy bilimlarning o’ziga xos xususiyatlaridan biri bo’lib, ilmiy-tadqiqotlar aro aloqalarni o’quv jarayonlarida aks ettirish sifatida qaraladi.

Elektron platformada “TAT” fanini o’qitish jarayonlarida mustaqil ta’limni tashkil etish bosqichlari:

- **motivatsion** – elektron ta’lim platformasi imkoniyatlaridan samarali foydalanishlarni ko’rsatish va bo’lg’usi o’qituvchilar orasida bilim olish motivini qo’llab-quvvatlovchi mustaqil ta’limni tashkil etish va elektron muhitda ularning mustaqil ta’limga bo’lgan doimiy qiziqishini rivojlantirish;
- **kognitiv** – “TAT” fani doirasida mustaqil ta’limni tashkil etish, kontentlarni to’plash, tahlil qilish va umumlashtirishga qaratilgan vazifalarni bajarish, shuningdek, bo’lg’usi o’qituvchilar tomonidan modulli kontentlarga asoslangan elektron platforma vositasidan foydalanish mahorati va undagi amallar (operatsiyalar) majmo’ini o’zlashtirish;
- **integrativ-faoliyatli** – axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida o’quv loyiha vazifalarini bajarishda “TAT” fanini boshqa fanlar bilan integratsiyalashuvi va fanlararo o’zaro ta’sir orqali mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarish nazarda tutiladi va turli fanlarning o’quv kontentlariga murojaatlarni amalga oshirilishini ko’zda tutadi;
- **refleksiv-baholash** – “TAT” fani yuzasidan yaratilgan elektron platformada modulli o’qitishni tashkil etish va taklif etilgan model asosida bo’lg’usi o’qituvchilarning darajali mustaqil ishlarni bajarishlari orqali egallangan bilimlar asosida ko’nikma va kompetensiyalarning rivojlanganlik darajasini baholash. Baholash ko’rsatkichlari va mezonlari:

- **motivatsion** – ushbu fanga kasbiy faoliyat yuritishga tayyorgarlik ko'rishning asosiy elementlaridan biri sifatida qarash va elektron ta'lim platformasidan foydalangan holda mustaqil ta'limni amalga oshirishda bo'lg'usi o'qituvchilarning qiziqishlarini shakllanganlik darajasi;

- **kognitiv** – ta'lim standartida qayd etilgan umummadaniy va kasbiy kompetensiyalarni muvaffaqiyatli shakllantirish uchun zarur bo'lgan turli xil ma'lumot manbalaridan olingan bilimlar tizimining mavjudligi;

- **faoliyat** – mustaqil ta'lim va kasbiy ilmiy-tadqiqotlarga oid vazifalarni bajarish qobiliyati va shakllangan bilimlarga asoslanib, kasbiy faoliyatda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni o'rganishni o'z ichiga olgan elektron platformada mustaqil faoliyatni tashkil etish ko'zda tutadi;

- **refleksiv-baholash** – elektron platforma vositasida bo'lg'usi o'qituvchilarning mustaqil ta'limni tashkil etish va nazorat qilish, kasbga yo'naltirilgan loyihalarni amalga oshirishda faoliyat natijalarini ob'ektiv baholash qobiliyati.

Ushbu ko'rsatkichlarni tanlash tasodifiy emas.

Kompetensiya – bu ma'lum fan yo'nalishida muvaffaqiyatli faoliyat yurgizish uchun bilim, ko'nikma va shaxsiy fazilatlarni qo'llash qobiliyatidir.

Kognitiv ko'rsatkich – shakllangan bilimlar, qolaversa faoliyat va ulardan kasbiy ahamiyatga ega vazifalarni hal qilishda foydalanish qobiliyatni baholashga imkon beradi.

Motivatsion ko'rsatkich – esa mustaqil ta'limni tashkil etishda, o'quv va kasbiy motivatsiyalarni baholash uchun zarurdir.

Baholovchi-refleksiv ko'rsatkich bo'lg'usi o'qituvchilarga fan ichida va fanlararo vazifalarini hal qilishda erishgan yutuqlarini mustaqil ravishda baholash imkonini beradi.

60111500-Rus tili va adabiyoti yo'nalishi bo'yicha mutaxassislar tayyorlash davlat ta'lim standarti bo'lg'usi o'qituvchilarda quyidagi kompetensiyalarni shakllantirishni nazarda tutadi:

UK 1. Bo'lajak kasbiy faoliyatning mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunib olish.

UK 2. Mustaqil faoliyatni tashkil etish, kasbiy vazifalarni bajarishning standart usullarini tanlash, ularning samaradorligi va sifatini baholash.

UK 3. Standart va nostandart vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish va ular uchun javobgarlik.

UK 4. Kasbiy vazifalarni bajarish, kasbiy va shaxsiy rivojlanish uchun zarur bo'lgan kontentlarni qidirish va ulardan samarali foydalanish.

UK 5. Kasbiy faoliyatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish.

UK 6. Jamoada ishlash, hamkasblar, rahbariyat, istemolchilar bilan samarali muloqot yuritish.

UK 7. Qo'l ostingizdagi jamoya a'zolari ishlari uchun javobgarlikni o'z zimmangizga olish.

UK 8. Kasbiy va shaxsiy rivojlantiruvchi vazifalarni aniqlash, o'zini-o'zi tarbiyalash, kasbiy rivojlanishni rejalashtirish.

UK 9. Kasbiy faoliyatda texnologiyalarning tez-tez o'zgarib turishini nazarda tutish va boshqalar⁴. O'quv fanlarni, jumladan, "TAT" fanini modulli kontentlarga asoslangan elektron platforma vositasini davlat ta'lim standartida ko'rsatilgan kompetentsiyalarni rivojlantirish va nazorat qilish jarayonlarida keng foydalanish mumkin.

Yuqorida keltirilgan mustaqil o'quv-bilish faoliyati samaradorlik ko'rsatkichlari va davlat ta'lim standartidagi kompetensiyalarni taqqoslab, quyidagi mosliklarni o'rnatish mumkin (2-jadval).

2-jadval Kompetensiyalarning talabalar mustaqil o'quv-bilish faoliyati samaradorlik ko'rsatkichlariga mosligi.

Kompetensiyalar	Ko'rsatkichlar
UK-1, UK-8.	Motivatsion
UK-4, UK-5, UK-9.	Kognitiv
UK-2, UK-3, UK-4, UK-5, UK-6, UK-7, UK-9.	Faoliyatli
UK-2, UK-8.	Refleksiv-baholash

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, "TAT" fani yuzasidan ishlab chiqilgan elektron ta'lim platformasida bo'lg'usi o'qituvchilarning mustaqil ta'limini tashkil etish modeli ta'lim samaradorligini oshirishga va ularda umummadaniy va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga imkon beradi.

REFERENCES

1. В.И.Гриценко., С.П.Кудрявцева., В.В.Колос., Е.В.Веренич. Дистанционное обучение: теория и практика. – К.: Наук. думка, 2004. – 375 с.
2. И.В.Роберт., С.В.Пашокова., А.А.Кузнецов и др. Информационные и коммуникативные технологии в образовании / учеб.-мет. пос. для пед. вузов. – М., 2006. – 259 с.
3. А.В.Андреев., С.В.Андреева., Т.А.Бокарёва., И.Б.Доценко. Новые педагогические технологии: система дистанционного обучения Moodle //Центр довузовской подготовки/ТГПУ - URL: <http://WWW.cdp.tsure.ru>
4. В.Маняхина., А.Золочевский. Описание настройки и использования Moodle - URL: <http://docs.altlinux.org/current/modules/moodle/>
5. Н.А.Муслимов., М.Усмонбоева., Д.Сайфуров., А.Тўраев. Инновацион таълим технологиялари. Т., 2015. – 208 б.
6. Lex.uz (on-line). Ўзбекистон Республикасининг давлат стандарти. Олий таълимнинг давлат таълим стандарти. <https://lex.uz/uz/docs/5705038>.

⁴ Lexuz (on-line). Ўзбекистон Республикасининг давлат стандарти. Олий таълимнинг давлат таълим стандарти. <https://lex.uz/uz/docs/5705038>